

Global Iqtisodiy O'sish

Bo'ronov Jumaboy Ibodovich¹

Annotatsiya: Ushbu tezisda Global iqtisodiy o'sish tushunchasi, global YIM tushunchasi, Global o'sishnin sekinlashtiruvchi omillar tushunchasi, Global inflyatsiya hamda ularning kelib chiqishi va bartaraf etshi mulohaza qilingan.

Kalit so'zlar: global iqtisodiy o'sish, global Yalpi Ichki Maxsulot, investitsiya, jismoniy kapital, inson kapitali

Global iqdisodiy o'sish xalqaro iqtisodiy rivojlanish global miqyosda o'sish, sanoatlashtirish va modernizatsiyani rag'batlantirish jarayonini nazarda tutadi, ko'pincha markaziy davlatlarning turli siyosat va investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyotlarni qo'llab-quvvatlashdagi faol rolini o'z ichiga oladi. Global iqtisodiy o'sishi daromadlarning o'sishiga olib keladi, iste'molchilarni hamyonlarini ochishga va ko'proq sotib olishga ilhomlantiradi va moddiy hayot sifati va turmush darajasini oshiradi. Iqtisodiyotda o'sish odatda jismoniy kapital, inson kapitali, ishchi kuchi va texnologiya funktsiyasi sifatida modellanadi.

Bilamizki butun dunyoda iqtisodiy global o'sish davom etmoqda. 2019 yil pandemiya(coved-2019) dagi inqirozdan keyin ko'p rivojlanayotgan davlatlar 2024 yil kelibdiki hali ham pandemiya keltirgan zararlarni tiklashda ko'p qiyinchiliklarga ucramoqda. Global iqtisodiy o'sish 2023-yildagi 2,7 foizdan 2024-yilda 2,4 foizgacha sekinlashadi. Rivojlanayotgan ko'plab mamlakatlarning, ayniqsa, Lotin Amerikasi va Osiyoning yaqin muddatli o'sish istiqbollari ham moliyaviy sharoitlarning keskinlashishi, fiskal maydonning qisqarishi va tashqi talabning kamligi tufayli zaiflashmoqda. Xususan, Xitoyda iqtisodiy o'sish 2024-yilda yetaricha yomon ahvolga kelib qoldi.

Global Yalpi Ichki Maxsulot degenda butun dunyodagi muayyan davr mobaynida (yil yoki chorak) butun dunyoda ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatidir. Hozirgi kunda jahon yalpi ichki mahsuloti 100 trillion AQSH dollaridan oshdi. Ayrim mamlakatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qo'shma Shtatlar 2022 yil holatiga ko'ra 25 trillion AQSh dollari bilan dunyodagi eng katta ulushga ega, bu global YIMning chorak qismini tashkil qiladi. Global YIMning asosiy qismini rivojlangan mamlakatlar tashkil etib kelmoqda. Agar dunyoda iqtisodiy inqiroz ro'y bersa Global YIM keskin tushib ketishimumkin buladi. Global YIM hajmining yillik o'sishi 2 foizgacha tushib ketdi deb tasavvur qilaylik, bu esa uning hajmi ikki barobar ortishi uchun 36 yil kerak bo'ladi demakdir.

Global o'sishni sekinlashuvi sarmoyaning notugri taqsimlanishi, qarzdorlik ortishi va demografik o'zgarishlar kabi qator sabablar bilan tushuntirish mumkin. Ular ichida texnologik taraqqiyot bilan bog'liq bulgan aholi yoshinig ortishi hamda mahsuldarlikni ham aytib o'tish mumkin. Hozirda dunyo bo'yicha 7.2 milliard aholi soni 2030 yilga kelib 8 milliard atrofida, 2050 yilga borib 9 milliard bo'lishi bashorad qilinmoqda. Bu umumiyl talabning ortishiga olib keladi. Demografik uzgarishning yana bir omili bu keksayishdir. Agar keksa yoshdagagi aholining ko'pgina qismi ishchi kuchi sifatida jalb qilinmasa, keksa yoshdagagi aholining ortishi borib borib katta iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Agar texnologik rivojlanish mahsuldarlikni jadal o'sishiga sabab bo'lmasa aholi soni ortib borayotgan dunyoda iqtisodiy rivojlanishni o'sishining sekinlashishi umumiy qoida bo'lib qolaveradi.

Global iqtisodiy o'sish 2023-yildagi 2,7 foizdan 2024-yilda 2,4 foizgacha sekinlashadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu raqamlar hali ham pandemiyadan oldingi darajadan past bo'lib



qolmoqda. Bunga sabab qilib yuqori foiz stavkalari, mojarolarning yanada kuchayishi, xalqaro savdoning sustlashuvi va ortib borayotgan iqlim falokatlari global o'sishga katta to'siq bo'layotgani aytildi. Mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, global inflyatsiya pasayishda davom etadi va 2024-yilda 3,9 foizni tashkil qiladi (2023-yilda 5,7 foiz edi). Biroq ko'pgina mamlakatlarda narx bosimi yuqoriligicha qolmoqda va geosiyosiy mojarolarning har qanday yanada kuchayishi inflyatsiyaning qayta tiklanishiga olib kelishi mumkin. Doimiy yuqori inflyatsiya qashshoqlikni bartaraf etishdagi taraqqiyotni yanada sekinlashtiradi, ayniqsa, kam rivojlangan mamlakatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'pchilik qismida yillik inflyatsiya 2024-yilda 10 foizdan oshishi kutilmoqda, deyiladi hisobotda. 2021-yil yanvar oyidan beri rivojlanayotgan mamlakatlarda iste'mol narxlari umumiy 21,1 foizga oshib, pandemiyadan keyin erishilgan iqtisodiy yutuqlarni boy berdi desa ham buladi. Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etishning yagona yo'li jahon iqtisodiyoti qo'shimcha sarmoyaga muhtoj.

Foydalilanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. <https://www.ecnmy.org>
2. <https://www.stats.gov.cn>
3. <https://www.cnn.com>.
4. Klaus Shvab- To'rtinchi Sanoat Inqilobi

